

**MEDIASAVODXONLIK: AXBOROT JAMIYATIDA ZARUR
KO'NIKMALAR**

Karimova Shanoza Ulug'bek qizi

Qo'qon davlat univesiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mediasavodxonlik tushunchasi, uning zamonaviy axborot jamiyatidagi ahamiyati va ta'lim tizimidagi roli yoritilgan. Ayniqsa, umumta'lim maktablari rahbarlari va o'qituvchilarining mediasavodxonlik ko'nikmalarini shakllantirish zaruriyati tahlil etilgan. Maqolada mediasavodxonlikning asosiy ko'nikmalari — tanqidiy fikrlash, interfaollik, estetik va xavfsizlik ko'nikmalarining mohiyati, shuningdek, axborot manbalarini baholash mezonlari ham ochib beriladi. Tadqiqot natijalari mediasavodxonlikni rivojlantirish fuqarolik mas'uliyati va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, axborot jamiyati, axborot manbalari, axborot tahlili, media vositalari, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, fuqarolik mas'uliyati, demokratik tamoyillar.

Kirish. So'nggi yillarda axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi natijasida axborot oqimi sezilarli darajada tezlashdi. Har bir inson kundalik hayotida ko'plab axborotlar bilan yuzma-yuz kelmoqda. Ushbu axborotlar orasida foydali, ilmiy va ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda manipulyativ va noto'g'ri ma'lumotlar ham mavjud [4]. Shu sababli zamonaviy inson uchun mediasavodxonlik – bu nafaqat axborotni qabul qilish va yaratish, balki uni tahlil qilish, saralash hamda tanqidiy fikr asosida baholay olish qobiliyatidir [1].

An'anaviy mediasavodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil etish ko'nikmasi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa-da, hozirgi kunda bu tushuncha kengayib, axborotning manbasi, maqsadi va ta'sir mexanizmini anglash jarayonini ham qamrab oladi. Mediasavodxonlik fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda va manipulyatsiyadan himoyalashda muhim o'rin tutadi [3].

An'anaviy mediasavodxonlik odatda shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish qobiliyati va sifatli matnlar yaratish ko'nikmasi bilan bog'liq bo'lgan. Biroq hozirgi kunda bu tushuncha kengayib, axborotning kim tomonidan, nima uchun va qanday maqsadda tarqatilayotganini anglashga aylandi. Bu esa axborot muhitda yuzaga kelayotgan murakkabliklarni va axborot oqimining ko'pligini hisobga olgan holda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mediasavodxonlik jamiyatda fuqarolik mas'uliyatini anglab yetgan, axborotga ehtiyojini to'g'ri qondiradigan, uni baholay oladigan va manipulyatsiyalardan himoyalana oladigan shaxslarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, umumta'lim

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

maktablari direktorlari uchun bu ko'nikmalar alohida ahamiyatga ega. Ular nafaqat o'z faoliyatida, balki maktab jamoasini samarali boshqarishda, islohotlarni tushunishda va o'quvchilarga, o'qituvchilarga sifatli axborot taqdim etishda mediasavodxonlikni yuqori darajada egallashlari shart.

“Media” atamasi lotin tilidagi medium so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning ma'nosi — vosita, vositachi, yo'lyoki yo'riqchi. Media axborotni yaratish, tarqatish va auditoriya bilan aloqa o'rnatish vositasi hisoblanadi. Media vositalari kundalik hayotimizda axborot almashinuvi jarayonining muhim qismiga aylandi. Ular insonlarning ijtimoiy, madaniy va ruhiy hayotiga ta'sir o'tkazadi, odamlarni dunyoqarashi va fikrlash tarzini shakllantiradi.

Media turlari quyidagicha tasniflanadi:

Bosma media: gazeta, jurnal, kitob va boshqa chop etiladigan nashrlar.
Vizual media: televideniye, kino, video va suratlar.
Raqamli media: internet, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar.
Ovozli media: radio, podkastlar va boshqa audio kontentlar.

Mediasavodxonlik — bu turli media kontentni nafaqat qabul qilish, balki uni ijodiy ravishda tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatidir. U shuningdek, media orqali muloqot qilish, turli rollarni bajarish, axborotlarni tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish va xavfsiz foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Mediasavodxonlik quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

1. Estetik va kreativ ko'nikmalar. Bu ko'nikmalar media kontentini yaratish, uni ijodiy qabul qilish va tahlil qilish qobiliyatini anglatadi. Masalan, o'quvchilar media materiallarni yaratish jarayonida ranglar, shakllar, matn va tovushlarni qanday uyg'unlashtirishni o'rganadilar. Ushbu ko'nikma ijodkorlik va yaratuvchanlikni rivojlantiradi.

2. Interfaollik ko'nikmalari. Bu media orqali samarali muloqot qilish, fikr almashish va turli media rollarni bajarish imkoniyatidir. Interfaollik o'quvchilarga o'z fikrlarini ifoda etishga, media mahsulotlari bilan faol muloqot qilishga yordam beradi.

3. Tanqidiy tahlil ko'nikmalari. Turli media kontentlarni tahlil qilish, ularning mazmunini anglash va ijtimoiy, siyosiy yoki madaniy ta'sirini baholash qobiliyatidir. Bu ko'nikma shaxsga media vositalarining manipulyatsiya qilish usullarini aniqlash va ularning maqsadini tushunishga imkon beradi.

4. Xavfsizlik ko'nikmalari. Internet va boshqa raqamli media vositalaridan xavfsiz foydalanish, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va zararli kontentdan saqlanish ko'nikmasidir. Bu ko'nikmalar yoshlarni virtual muhitdagi xavf-xatarlardan himoya qiladi.

Axborot — bu to'plangan, qayta ishlangan va tushunarli shaklda taqdim etilgan ma'lumotlardir. U inson va jamiyatning asosiy bilim manbai bo'lib, turli shakllarda

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

mavjud: matn, rasm, statistika, audio va video. Axborot sifati uning aniqligi, ishonchliligi va to'g'riligiga bog'liq.

Axborot manbalari uch toifaga bo'linadi:

Birlamchi manbalar — original hujjatlar va ma'lumotlar: rasmiy hisobotlar, nutq matnlari, fotosuratlar, shaxsiy kundaliklar, intervyu va diplomatik hujjatlar.

Ikkilamchi manbalar — birlamchi manbalarni tahlil qiluvchi va sharhlovchi materiallar: maqolalar, sharhlar, tahliliy yozuvlar.

Uchlamchi manbalar — birlamchi va ikkilamchi manbalarni qayta ishlagan ma'lumotlar: entsiklopediyalar, qo'llanmalar, referatlar, ma'lumotlar bazasi.

Axborotni tanlashda uning manbasi va ishonchliligi juda muhim hisoblanadi. Masalan, o'zini adabiy tanqidchi deb tanishtirgan shaxsning tavsiyalari har doim ham obektiv va xolis bo'lavermaydi. Shuning uchun har bir axborot manbasini tanqidiy baholash va tekshirish lozim.

Mediasavodxonlik jamiyatda faollikni oshirish, huquqiy-demokratik tamoyillarni targ'ib qilish va fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim rol o'ynaydi. Mediasavodxon shaxs:

- OAV orqali uzatilayotgan axborotni tushunadi, saralaydi va tanlaydi;
- Axborot orqali ongini boshqarishga yo'l qo'ymaydi;
- Har qanday vaziyatda oqilona va to'g'ri qaror qabul qiladi;
- Vizual obrazlar ta'sirini anglab, ularning ijobiy yoki salbiy ta'sirini tahlil qiladi;
- Media orqali berilayotgan matnli va vizual kommunikatsiyalarni to'g'ri talqin qiladi;
- Axborot manbalari, ularning kimga va qanday maqsadda xizmat qilayotganini tushunadi.

Mediasavodxonlik maktab direktorlari va o'qituvchilar uchun ayniqsa muhimdir, chunki ular ta'lim jarayonida axborotni aniqlash, tahlil qilish va saralash ko'nikmalarini shakllantirishda ustozlik qiladilar.

Bugungi kunda axborot resurslari juda ko'p va turli-tuman. Internet, onlayn kutubxonalar, elektron ma'lumotlar bazalari, virtual muzeylar orqali millionlab ma'lumotlarni olish mumkin. Biroq barcha ma'lumotlar ishonchli va aniq emas. Shuning uchun har bir inson axborot manbalarining sifatini baholashni o'rganishi, manipulyatsiyadan himoyalaniishi va axborotni maqsadga muvofiq tanlashi lozim.

Axborotni qabul qilishda, tanlashda va undan foydalanishda quyidagi tayanch ko'nikmalar zarur:

- Tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish;
 - O'z fikrini aniq ifoda etish va asoslash;
- Mustaqil o'rganish va axborotga egalik qilish;
- Davlat faoliyati va jamiyatdagi demokratik jarayonlarda faol ishtirok etish;
 - O'qish, o'rganish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Xulosa. Mediasavodxonlik zamonaviy jamiyatda axborotning tezligi va turli-tumanligi fonida insonning eng muhim ko'nikmalaridan biriga aylandi. U fuqarolarning axborotni to'g'ri qabul qilish, tahlil qilish, yaratish va baholash imkoniyatini beradi hamda ularni manipulyatsiyadan himoya qiladi. Ayniqsa, umumta'lim maktablari rahbarlari uchun mediasavodxonlik nafaqat axborot savodxonligi, balki samarali boshqaruv va ta'lim sifatini oshirish uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Mediasavodxonlikni shakllantirish orqali jamiyatimizda malakali, faollik ko'rsatadigan va demokratik tamoyillarga sodiq fuqarolarni tarbiyalash mumkin. Shu sababli, bugungi kunda har bir shaxs, ayniqsa ta'lim muassasalari rahbarlari va o'qituvchilari uchun mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish va keng targ'ib qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bozorboyevna, N. N. (2023). Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini o'z ustida ishlashning zamonaviy yo'llari. *Science and innovation*, 2(Special Issue 4), 262-265. 2. Darslarda o'quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish N Nuraliyeva
3. *Science and innovation* 1 (B8), 1423-1426 Professional development of teachers NN Bozorboyevna Universal Publishing INC.
4. Каримова, М., Нуралиева, Н., & Халилова, Л. (2024). Медиаграмотность в сфере образования. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1), 26-30.
5. Allayorov, A., Xudayberdiyev, R., Nuraliyeva, N., Xalilova, L., & Abduraimova, I. (2024). GENDER TERMINOLOGIYASINING TARJIMA XUSUSIYATLARI. *Models and methods in modern science*, 3(4), 198-201.
6. Khalilova, L., Allayorov, A., Xudayberdiyev, R., & Nuraliyeva, N. (2024). INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES TO ENHANCE FOREIGN LANGUAGE INSTRUCTION. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(2), 234-237.
7. Turdikulova, B., Karimova, M., & Nuraliyeva, N. (2024). Advantages of information communication technologies. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(5), 20-25.
8. Fayziyev, A. (2024). Dars samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning o'ziga xos metodik xususiyatlari. *Modern Science and Research*, 3(1), 1-2.
9. Boshlang'ich ta'limda triz-texnikasini qo'llanishi. NN.Bozorboyevna Volume -7_ Issue-4_Iyun_2022. 76. 4. Developing the Professional Activity of Primary Education

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Teachers N.B. Nuralieva. International Journal of Social Science Research and Review 5 (5), 259-264.

10. Bozorboyevna, N. N. (2023). PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF TEACHERS.

11. Каримова, М., & Муратбаева, Р. (2024). Литературные шедевры века: классика, знаменитость и вечность. Актуальные вопросы лингвистики и преподавания иностранных языков: достижения и инновации, 1(1), 383-385.

12. Musayeva, S. I. (2024). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF INTERACTIVE METHODS INTRODUCING THE CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) APPROACH. World Scientific Research Journal, 32(1), 217-219.

13. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararorivojlantirish.

14. Наримова, Г. А., Сиддикова, Н., & Саматова, Г. (2015). Различные подходы в преподавании иностранного языка студентам в неязыковых вузах. Научный альманах, (11-2), 292-296.

15. Shaimova, G. A., Shavkieva, D., & Abdukadyrova, N. (2014). The Importance of WebQuest Technologies in Formation of the Professional Speech in Future Specialists. In Young Scientist USA (pp. 160-162).